

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI
SAMARQAND DAVLAT UNIVERSITETI**



**10.00.02 – O'ZBEK ADABIYOTI IXTISOSLIGI BO'YICHA TAYANCH
DOKTORANTURAGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MUTAXASSISLIK
FANLARIDAN**

DASTUR VA BAHOLASH MEZONI

Samarqand – 2023

Annotatsiya:

Dastur 10.00.02 – O‘zbek adabiyoti ixtisosligiga kiruvchilar uchun 5A220101 – Adabiyotshunoslik (O‘zbek adabiyoti) mutaxassisliklarini 2019-yilda tasdiqlangan o‘quv rejasidagi asosiy fanlar asosida tuzildi.

TUZUVCHILAR:

Hasanov Sh.A.	–	SamDU, Istiqlol davri adabiyoti va adabiyot nazariyasi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, professor
Sulaymonov I.I.	–	SamDU, Mumtoz adabiyot tarixi kafedrasi mudiri, filologiya fanlari doktori, dotsent.

Dastur Filologiya fakultetining 2023-yil 26-oktabrdagi № 2-sonli Kengash yig‘ilishida muhokama qilingan va tasdiqlashga tavsiya etilgan.

O'ZBEK ADABIYOTI TARIXI fani bo'yicha:

Adabiyotshunoslik fani va uning tarkibiy qismlari (o'ziga xos xususiyatlari, o'rganilish tarixi, 4 tarkibiy qismi). O'zbek xalq og'zaki ijodining o'ziga xos xususiyatlari, janrlari, taniqli namoyandalar. (Xalq og'zaki ijodining yozma adabiyotdan farq qiluvchi o'ziga xos xususiyatlari, janrlari (doston, terma, askiya). Fozil Yo'ldosh o'g'li, Islom shoir, Ergash Jumanbulbul, Po'lkan va ularning qator iste'dodli davomchilar.). Qadimgi mif va afsonalar.(Mitra, Qayumars, Jamshid, Ellibek, Rustam, Suyovish, Afrosiyob haqidagi asotir va afsonalar. Ularning o'rganilish manbalari. Ularda qadimgi ajdodlarimiz tarixi hayotiga oid ma'lumotlarning berilishi.) Adib Ahmad Yugnakiy va uning «Hibbatul xaqoyiq» asari (A.Yugnakiy va uning «Hibbatul haqoyiq» asari. Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asarida adib haqidagi fikrlar. «Hibbatul xaqoyiq» - pandnomma xarakteridagi asar. Asar shakli). Mavlono Lutfiy - shoir va dostonnavis. (Mavlono xaqida A.Navoiyning fikrlari. Devoni. «Zafarnoma» dostoni. «Gul va Navro'z» dostoni borasidagi munozaralar.) Murabba' va uning o'ziga xos xususiyatlari. Muqumiy murabbalari. (Murabba' – musammatlarning shakli xillaridan biri. Aruzning yengil vaznlarida yoziladi. Murabba' shakli.Ahmad Yassaviy, Mashrab va boshqalarning murabba' janridagi ijodi. Muqimiy murabba' she'r ustasi.) Tazkiranavislik va uning adabiy tanqid tarixidagi ahamiyati. (Navoiygacha yaratilgan tazkiralari.«Majolis un – nafois» turkiy tildagi dastlabki tazkira. Nisoriy, Maleho, Mutribiy, Vozeh kabi tazkiranavislari. «Tazkurai Qayumi» zamonaviy tazkira). Anbar Otin she'riyati (Anbar Otin ma'rifatparvar shoir. Shoiraning lirik asarlari, hajviy g'azallari, purhikmat qit'a va yakka baytlari. «Qarolar falsafasi» risolasi.) A.Navoiyning «Hayrot ul – abror» dostoni. (A.Navoiyning «Xayrat ul – abror» dostoni: falsafiy ijtimoiy ahloqiy doston. Doston hamd, na't, hayrat, maqolat, hikoyat va tamsillardan iborat. Doston mavzui inson va uning manfaatlari, ahloqi va o'zligini tanish. Asarda ilohiylik va dunyoviylik talqinlari). «Boburnoma» - tarixiy esdalik asar. («Boburnoma» - memuar janrning buyuk namunasi. 1484-1529 yillar voqealari xodisalari. Markaziy obraz – Bobur. Asarning xorijiy tillarga tarjima etilishi.) Ogahiyning tarixiy va tarjima asarlari. (Ogahiy mohir tarixchi va tarjimon. Xorazmning 1813 yilda 1872 yilgacha bo'lgan tarixni yorituvchi 5 ta hamda musulmon sharqida mashhur bo'lgan shoir va adiblarning asarlari tarjimasidan iborat 19 ta asarning muallifi.) Alisher Navoiyning «Sab'ai sayyor» dostoni. (Dostonidagi hikoyatlar. «Bahromu Gulandon» bosh qoliplovchi hikoyat. Asardagi birinchisi musofir hikoyati. Ijobiy va salbiy timsollar. Dostonda insonparvarlik g'oyasi.) Atoiy g'azaliyoti. (Adib haqida Navoiy keltirgan ma'lumotlar. Shoирning qo'lyozma devoni. Ishqiy – tasavvufiy mavzularning g'azallarida yetakchi o'rin tutishi. G'azallarining vazni va undagi oshiq-ma'shuq va ag'yor obrazlari. Adib ijodida majoz va badiiyat.) A.Navoiyning «Farhod va Shirin» dostoni. (Majoziy ishq mavzuidagi doston. Dostongda Farhod, Shirin, Shopur, Mehinbonu obrazlari orqali shoирning gumanistik qarashlarini aks etishi.) Abdurauf Fitrat hayoti va faoliyati. (Fitrat – jadid maktabining yirik vakili. Chet ellardagi hayoti. «Sayha» birinchi she'riy

to‘plami. Uning lirikasi. «Munozara», «Hind sayyohi» asarlarining yozilishi. Fitratning siyosiy va ma’rifatparvarlik faoliyati. Xojaning hayoti va adabiy merosi.(Xoja - mohir hikoyanavis.Uning saroydagi faoliyati. Xojaning «Gulzor», «Miftohul adl» asarlari.) Uvaysiy hayoti va ijodi. (Johon Otin Uvaysiy (1790 - 1850) Umarxon hukmronligi davrida avval Marg‘ilon, so‘ng Qo‘qonda yashab ijod etgan shoira.Devoni «Voqayati Muhammad Alixon» – tarixiy manzumasi. «Shahzoda Hasan» va «Shahzoda Husan» dostonlari.G‘azal va chistonlari.) «Qutadg‘u biling» – turkiy xalqlar adabiyotining yirik obidasi. (Asar XI - XII asrlar o‘zbek didaktik adabiyotining yirik namunasi. «Qutadg‘u biling» asarining shakli, vazni, timsollari.) Sakkokiyning g‘azal va qasidalari. (Sakkokiy qasidanavis. Ulug‘bek Mirzo madhiga va o‘scha davrning nufuzli kishilariga bag‘ishlangan qasidalari.) Turdi muxammaslari.(Turdi Farog‘iyning besh muxammasi. To‘rttasi turkiy, bittasi Sa’diy g‘azaliga yozilgan tazmin. Subhonqulixon haqida hamda «Turkiy muxammasi»da tanqidiy hamda xasbi xollik ruhi.) A.Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy»si tarkibi.(A.Navoiyning «Xazoyin ul-maoniy» buyuk shoirning lirik asarlari majmuasi. Asar 4 qismdan iborat. «G‘aroyib us-sig‘ar», «Navodir ush shabbob», «Badoi’ul vasat», «Favoid ul-kibar».16 xil janrdagi lirik asarlar keltirilgan. Asrada g‘azal yetakchi o‘rin tutadi. Turdi hayoti va ijodi. (Turdi XVII asr o‘zbek adabiyotining o‘ziga xos namoyandasi. XX asrning boshida asarlarining topilishi: 18 ta she’ri – 12 ta g‘azal, 5 ta muxammas, 1 ta fard. Adib ijodida ijtimoiy mavzu). Qit’a va ruboilyarning shakliy – poetik xususiyatlari. (Qit’a va ruboilyar kichik lirik janrlardir. Sarband misradan iborat. Qofiya tartibi qit’ada ba-va-ga, ruboiyda a-a-b-a, a-a-a-a (taronai ruboiy) aruzning xazaj bahrida yozib kelingan: qit’ada vazn chekgarasi yo‘q. Navoiy, Bobur, Xuvaydo, Munis, Ogahiy, Avaz qit’a va ruboilyari mashhur.) Muhammad Solih va uning «Shayboniynoma» dostoni.(XVI asr avvallarida Shayboniylar sulolasiga asos solindi. Shayboniyxon 1510 yilgacha hukmronlik qilgan. «Shayboniynoma» – tarixiy dostonida Shayboniy yurishlari ifodalangan.) «Majolis un-nafois» va «Mezon ul-avzon» o‘rta asr adabiyotshunosligining muhim namunalaridan («Majolis un nafois» - adabiy tazkira. Tazkira 8 majlisdan iborat va 400 dan ortiq salaf va zamondosh shoirlar haqida ma’lumot beradi. «Mezon ul avzon» o‘zbek yozma va xalq og‘zaki ijodining vaznlari, xususan aruz vazni haqidagi ilmiy asar.) Zokirjon Furqat – ma’rifatparvar shoir. (Furqat (1859-1909) mustamlakachilik davridagi yangicha ma’rifatparvarlikda mashhur bo‘lgan shoir, adib, publitsist. Adibning ma’rifatparvarlik qarashlari shakllanishida Toshkentning ta’siri. Ma’rifatparvarlik mavzusidagi qator manzumalari, memuar asarlari, she’riy va nasriy maktublari. O‘zbek-ozarbayjon adabiy aloqalari. (Ikki turkiy xalq va ularning shoiru adiblari orasida do’stlik, qardoshlik adabiy aloqalar rivojlanib kelgan. Nizomiy, Navoiy, Fuzuliy, Nasimi, Lutfiy, Xoja, Ogahiy, Furqat kabilarning asarlari ko‘prik rolini o‘tagan. Tarjimalar.) A.Navoiy tuyuqlari va uning asosiy belgilari. (Tuyuq va uning asosiy belgilari. Navoiy tuyuqlari. Tuyuq – turkiy she’riyatga xos lirik janr. «Ramali musaddasi maqsur» vaznida yoziladi. Mashrab she’riyati. (Mashrab Namanganda tavallud topib, Qoshg‘arda va boshqa o‘lkalarda bo‘lgan.«Qissayi Shoh Mashrab»da rivoyat, naqllar, shoir asarlari keltirilgan.1991 yilda devoni to‘laroq holda nashrdan chiqdi.) A.Navoiyning

«Saddi Iskandariy» dostoni. (Saddi Iskandariy» dostoni «Xamsa»ning beshinchi dostoni. Komil inson, adolatli shoh haqidagi romantik obrazlar talqini. Iskandar va uning atrofidagi donishmandlar tasviri. Dostondagi Abu Said, Tilla kampir, Bahromgo'r, Mahmud G'aznaviy, Luqmoni Hakim haqidagi hikoyatlar) Durbek va uning «Yusuf va Zulayho» dostoni.(Doston mavzusi Yusuf va Zulayho ishq tarixidir. Doston inson ruhining , inson ma'naviyatining qomusidir. «Yusuf va Zulayho» dostoni ishqiy-sarguzasht, ahloqiy doston. Andalib kabi shoirlarning shu mavzudagi ijodi) o'zbek adabiyotini davrlashtirish masalasi. (o'zbek adabiyoti masalasini davrlashtirish to'rt davrga bo'lib o'rganish tavsiya etilgan: qadimgi madaniyat va adabiyot, XII asr Sharq uyg'onish davri adabiyoti, XII-XVI asrlar adabiyoti, XVII-XIX asrlar adabiyoti, milliy uyg'onish davri adabiyoti.) A.Navoiyning «Layli va Majnun» dostoni. (Dostondagi obrazlar. Majoziy ishqning haqiqiy ishqqa aylanishi. Layli, Qays (Majnun), Navfal obrazlari orqali tasvirlangan oshiqlikning umumiy timsoli. Qadimgi madaniyatni o'rganish manbalari. (Muqaddas diniy kitoblar. «Tavrot», «Injil», «Zabur», «Qur'on», «Avesto», «Bundashixon» va boshqalar. Qadimgi Yunon ossuriy, Xitoy arab sayyoohlari va tarixchilari asarlari). Komil Xorazmiyning adabiy merosi. (1825-1899 yillarda hayot kechirgan. Feruz, Ogahiy, Tabibiy, Bayoniylarga zamondosh shoir, hattot, tarjimon, musiqachi. «Devoni Komil»da 4000 baytga yaqin g'azallari, murabba'lari, muxammaslari, musabba'lari. Adibning «Qasidai Navro'z» asari. A.Navoiyning «Lisonut tayr» asari. («Lisonut - tayr» - tasavvufiy falsafiy doston. Majoziy mazmun va timsollarga ega. Semurg', Hudhud, Shayx Sano'n va boshqa ko'p personajlar tasviri bor. Yetti vodiy tasviri Boyazid Bistomiy, Mansur Xalloj, Jo'nayd Bog'dodiy, Attor kabilarning tasavvufiy qarashlarining Navoiy tomonidan davom ettirilgan.) Is'hoqxon Ibratning adabiy va ilmiy merosi. (Shoir, lug'atshunos, tilshunos, tarixchi olim, sayohatchi, matbaachi sifatida asarlar yaratgan. «Lug'ati al sitta», «Jome' ul hutut, «Mezon ul zamon», «Tarixi Farg'ona», «Tarixi madaniyat» kabi asarlar muallifi). Samarqand navoiyshunoslik maktabi. (Samarqandlik olimlarning navoiyshunosliik taraqqiyotiga qo'shgan hissalari. Abdurauf Fitrat, Abdurahmon Sa'diy, Sadreddin Ayniy, Vohid Abdullaev, Botirxon Valixo'jaev, Muslihiddin Muhiddinov, Rahmonqul Orzibekov, Shuhrat Sirojiddinov kabi olimlarning xizmatlari va ilmiy asarlari.) «Boburnoma»da Samarqand tasviri. («Boburnoma»da Samarqand tasviriga oid alohida fasllar berilgan. Samarqandning qadimiyligi, nomlanishi, tarixiy obidalari, qadamjolari, tabiat, aholisi, bog'u rog'lari haqida olimu fuzolalar haqida aniq lavhalar chizilgan.) Murabba' va uning o'ziga xos xususiyatlari. Muqumiylar murabbalari. (Murabba' – musammatlarning shakliy xillaridan biri. Aruzning yengil vaznlarida yoziladi. Murabba' shakli. Ahmad Yassaviy, Mashrab va boshqalarning murabba' janridagi ijodi. Muqumiylar murabba' she'r ustasi.) A.Navoiyning «Nasoyim ul-muhabbat» asari. (Mashoyixlar, azizu anbiyolar, mutasavvuflar hayoti, karomatlari ular haqidagi nasriy asar.) A. Navoiyning «Layli va Majnun» dostonidagi obrazlar. (Sevgi dostonidagi majoziy ishqning haqiqiy ishqqa aylanishi. Layli, Qays (Majnun), Nafal obrazlari orqali tasvirlangan. Majnun oshiqning umumiy timsoli. Layli ishq dardining go'zal timsoli.) «Gul va Navro'z» asari va uning muallifi. (Asarning Lutfiyga nisbat berilishi. Keyingi

yillardagi izlanishlar natijasida asarning Haydar Xorazmiy qalamiga mansub ekanligi. Bu haqda «Funun ul-balogs» asaridagi ma'lumotlar. «Gul va Navro'z» ishqiy – qahramonlik dostoni.) Avaz o'tar va uning adabiy merosi. (Avazniyoz – Avaz o'tar (1884 - 1919) Xorazmdagi o'zbek adabiyotining talantli namoyandası. Devonlar tartib bergen. 1984 yilda tavalludining 100 yilligi munosabati bilan «Saylanma»si chop etildi. G'azal, muxammas, ruboiy, «faloniy» turkumidagi qit'alari. «Xalq», «Til», «Ulamolarga», «Sipohiylargi», «Hurriyat» kabi she'rlari mashhur.) Tuyuq janri va Bobur tuyuqlari. (Tuyuq turkiy xalqlar she'riyatiga xos janr. To'rtliklar tarzida aruzning «ramali musaddasi maqsur» vaznida ishqiy sho'x mavzularda yozilgan. Qofiyalarda ko'proq tajnisli (omonim) so'zlar qo'llanilgan. Bobur ijodida tuyuqlar hamda qit'a tuyuqlar.) Sayfi Saroyi adabiy merosi. (Sayfi Saroyining lirik she'rlaridan namunalar. «Suxayl va Guldursun» dostoni. «Guliston bit turkiy» Sa'diy Sheroziyning «Guliston» asarining ijodiy tarjimasi. Asarda shoirlarning o'rni, iste'dodi haqida juda muhim adabiy-estetik fikrlarni bayon etgan. Adib ijodida komil inson g'oyasi.) Muqimiy hayoti va ijodi. (Muqimiy (1850-1903) milliy uyg'onish davri adabiyotining mashhur vakili, xassos, lirik shoir. Sayohatnomalar, she'riy va nasriy maktublar muallifi. Muqimiy satirasi va murabba'lari.) Nodira hayoti va lirikasi. (Komila, Nodira, Maknuna taxalluslari. Devon tartib bergen ikki tilli shoira. Oshiqlar g'azalxonii Nodira (1792-1842) Umarxon Amiriyning umr yo'ldoshi. Muhammadsharif So'fizoda ijodi. (Tarjimai holi, hajviy she'rlari uchun shoirning «daxriy» deb e'lon qilinishi, «Bizlar» she'ri. Uning chet ellarda bo'lishi. Sufizoda lirikasi. Ma'rifiy shoir sifatida).

HOZIRGI ZAMON O'ZBEK ADABIYOTI **fani bo'yicha:**

Shukur Xolmirzayev hikoyalari. (Yozuvchining ilk ijodi. "Og'ir tosh ko'chsa" hikoyalari to'plami, "Bodom qishda gulladi", "Arosat", "Ozodlik" kabi hikoyalari. "Kimsasiz hovli", "Farzand" kabi keyingi yillarda yozilgan hikoyalari tahlili). 80-90-yillar o'zbek prozasi (Bu yillar o'zbek nasri yangi talantlar bilan boyidi. Sh.Xolmirzaev, O'.Umarbekov, O'.Xoshimov, X.Sultonov, M.Do'st, T.Murod kabi yozuvchilar ijod qilgan. "Amir Temur", "Shaytanat", "Otamdan qolgan dalalar" romanlari haqida.) Erkin Vohidov ijodi. (Tarjimai holi. "Tong yulduzi" shoirning ilk kitobi. Klassik traditsion janrlarda yozgan she'rlari. "Do'st bilan", "Yoshligim", "Hofizga kabi" g'azallari tahlili. "o'zbegim", "Inson" kabi qasidalari. Shoirning hajviy lirikasi). Abdulla Avloniyning pedagogik faoliyati. ("Birinchi muallim", "Ikkinchi muallim" darsliklari, Turkiy guliston yohud axloq" kabi asarlari). Mahmudxo'ja Behbudiy hayoti va jadidchilik faoliyati. (Behbudiyning yoshligi, chet ellarda bo'lishi, jadidchilik faoliyati. "Samarqand" gazetasi, "Oyna" jurnallari. Abdulla Avloniy hayoti va ijodi. ("Adabiyot yohud milliy she'rlar" to'plamiga kiruvchi she'rlari. "Advokatlik osonmi?", "Pinak", "Biz va siz", "Portugaliya inqilobi", "Ikki muhabbat" singari dramatik asarlari.). Muhammadsharif So'fizoda ijodi. (Tarjimai holi, hajviy she'rlari uchun shoirning "daxriy" deb e'lon qilinishi, "Bizlar" she'ri. Uning chet ellarda bo'lishi. Sufizoda

lirkasi. Ma'rifiy shoir sifatida.). G'.G'ulomning falsafiy poeziyasi. (Shoir urush davrida "Sen yetim emassan", "Sevinish" kabi she'rlar yozdi. Keyinchalik shoirning "Vaqt", "Pol Robgonga", "Livan ozod bo'ladi", "Ona qizim Jamilaga" kabi falsafiy. She'rlari.) 20-yillar o'zbek poeziyasi. (o'zbek lirkasida ijtimoiy motivlar talqinining yetakchi o'rniga chiqishi. Hamza va Ayniyalar she'riyatida davr vositalariga munosabat. Cho'lpon, Fitrat kabilar she'riyatida yurt ozodligi mavzusi. Yangi avlod ijodkorlarining adabiyotga kirib kelishi.) Abdurauf Fitrat hayoti va faoliyati. (Fitrat – jadid maktabining yirik vakili. Chet ellardagi hayoti. "Sayha" birinchi she'riy to'plami. Uning lirkasi. Munozara", Hind sayyohi" asarlarining yozilishi. Fitratning siyosiy va ma'rifatparvarlik faoliyati. A.Oripovning dostonlari. ("Xakim va ajal" dostonida Ibn Sino obrazining berilishi "Ranjkom" dostonida turg'unlik davrining illatlari fosh etilishi. "Jannatga yo'l" dramatik dostonida ma'naviyat masalasi.) Hamzaning "Boy ila xizmatchi" dramasi.(Dramada tasvirlangan davr. Bu asar haqida keyingi yillarda bo'lib o'tgan bahslar. K.Yashin tomonidan asarning qayta tiklanishi. Asardagi obrazlarni tanlash. Asarning badiiy xususiyatlari, tili.) Abdulla Qodiri ijodi.(Tarjimai holi. "Baxtsiz kuyov" pesasi, "Uloqda", "Jinlar bazmi", "Tinch ish" sangari hikoyalari. A.Qodiriyning jadidchilik faoliyati. "To'y", "Ahvolimiz" kabi she'rlari. "Mushtum" hajviy to'plamidagi faoliyati. Kalvak Mahzum, Toshpo'lat tajang singari obrazlar talqini). Abdulhamid Sulaymon o'g'li Cho'lpon she'riyati.(Tarjimai holi. "Adabiyot nadir" nomli maqolasi haqida. Cho'lpon she'riyatida ozodlik va erkning kuylanishi. o'zbek xotin-qizlari ozodligi mavzusi, "Xalq", "Ko'ngil", "Gul va bulbul", "Binafsha" kabi she'rlari.) Abdulla Qahhor qissalari. ("Oltin yulduz" qissasi. Asarda Ahmadjon Shukurov obrazi. "o'tmishdan ertaklar" avtobiografik qissa. "Sinchalak", "Muhabbat", "Zilzila" kabi qissalari.) o'tkir Hoshimov romanlari. ("Nur borki soya bor", "Ikki eshik orasi", "Tushda kechgan umrlar", romanlarida insonlar taqdiri talqini). Oybekning "Navoiy" romani. (Tarixiy – biografik roman. Turli ijobiy va salbiy qahramonlar. Navoiy, Jomiy, Boyqaro, Behzod tarixiy shaxslar va To'g'onbek, Arslon, Dilbar kabi to'qima obrazlar.) Rauf Parfi ijodi. (Shoir she'riyatining janr xususiyatlari. Yevropa she'riyati. "Sabr daraxti" she'rlar to'plamiga kirgan she'rlari tahlili Shoir she'rlarida o'ziga-xos, original Metaforalarning berilishi.) Oybekning "Qutlug' qon" romani. (Roman haqida yangicha qarashlar. Obrazlarning yangicha talqini. Mirzakarimboy obrazi. Asar Oybek ijodida katta o'rin tutadi. Asarda mehnatkash xalq vakillari obrazi.) Said Ahmad ijodi. (Tarjimai holi. Hajviy hikoyalari. "Cho'l burguti" qissasi. Ufq" trilogiyasi. Qayta qurish yillari "Jimjiitlik" romani yaratildi. Romandagi Ikromjon obrazi. Asar haqida A.Qahhor fikri.) Aqsad Muxtor romanlari. ("Tug'ilish" romani Bekobod metallurgiya kombinati haqida yozilgan asardir. "Davr mening taqdirimda", "Opa singillar", "Chinor", "Amu", kabi romanlar haqida adabiyotshunoslarning fikrlari.) Zulfiya dostonlari. ("Quyoshli qalam" dostonida Otobek obrazi. Shoiraning "Xotiram siniqlari" dostoni.) Komil Yashin dramaturg. ("Gulsara" pesasi xotin – qizlar ozodligi mavzusiga bag'ishlangan. "Tor - mor", "Hamza", "General Rahimov", "Yo'lchi Yulduz", "Inqilob tongi" asarlari. Urush yillarida yaratgan "o'lim bosqichlariga", "Oftobxon" nomli asarlari.) M.Shayxzodanining «Mirzo Ulug'bek» tragediyasida

hayot haqiqati (asarning mavzusi, g‘oyaviy mazmuni, asosiy obrazlar tahlili.) A.Muxtorning «Tug‘ilish» romani (sanoat mavzusi, quruvchi yoshlar hayoti va mehnati; yosh Nafisaning tug‘ilishi, Luqmoncha – bosh qahramon.) «Tobutdan tovush» - satirik komediya (mavzu, asarning janr xususiyati, poraxo‘rning fosh etilishi; Suxsurov, Netay, Qori – satirik obrazlar.) Abdulla Oripov dostonchiligi haqida («Jannatga yo‘l», «Hakim va ajal», «Ranjkom» misolida; mavzu, g‘oya, obraz: illatlarning fosh etilishi). Sh.Rashidov «Kashmir qo‘shig‘i» qissasining g‘oyaviy – badiiy va janr xususiyatlari (mavzu, folklor motivlari, g‘oyalari, ramziy obrazlar: Nargis, Bambur, Xorud, Bo‘ron obrazlari). O.Yoqubovning «Adolat manzili» romanida hayot haqiqati (O‘zbekistonda 80- yillarning ikkinchi yarmida bo‘lgan qatag‘on tasviri: «Paxta ishi», Suyun Burgut, Veteran bobo obrazi). Said Ahmadning dramaturgiyada obraz yaratish mahorati («Kelinlar qo‘zg‘aloni», «Kuyov» komediyalari, Farmonbibi, G‘ani ota obrazlari). A. Oripov she’riyatida Amir Temur obrazi («Sohibqiron» haqidagi dramatik dostoni misolida). A.Qahhor mohir hikoyanavis. («O‘g‘ri», «Arslonbobo», «To‘yda aza» hikoyalarida g‘oya, mavzu, obraz, mahorat) Zulfiya she’riyatining asosiy xususiyatlari (xotin – qizlar hayoti, tinchlik, do‘slik g‘oyalari, «O‘g‘lim sira bo‘lmaydi urush» she’rining tahlili) «Uch ildiz» (P.Qodirov) romanida yoshlar obrazi. (Mavzu, g‘oya, obrazlar: Mahkam, Gavhar, Ochil, talabalar obrazlari). A.Qodiriyning obraz yaratish mahorati. (Otabek va Yusufbek Hoji, Anvar va Ra’no obrazlari asosida). G‘afur G‘ulom bolalar yozuvchisi («Bari seniki», «Farzanlarimizga», «Shum bola» asarlari misolida). Xamza dramaturgiyasida xotin-qizlar obrazi.(Maysara, Jamila, Xolisxon, Fotima obrazlari). Erkin Vohidov ijodida g‘azal janri («Yoshlik devoni», «Do‘s bilan obod uying» va h.k.). «Nurxon» va «Gulsara» dramalarining qiyosiy tahlili (xotin-qizlar ozodligi mavzusi; Gulsara, Nurxon obrazlari haqida) Cho‘lpon she’riyatining asosiy xususiyatlari (erk, ozodlik, xalq haqidagi she’rlari, «Xalq» she’rining tahlili). Behbudiyning hayoti va ijodi («Padarkush» dramasi va publitsistikasi misolida.). Uyg‘un va Izzat Sultonning “Alisher Navoiy” dramasi. (Dramadagi tarixiy shaxslar obrazi. Guli, Mansur kabi to‘qima obrazlar. Dramaning o‘zbek adabiyotida tutgan o‘rni.) E.Vohidovning dostonlari. (“Nido”, “Palatkada yozilgan doston”, “Ruhlar isyonii” dostonining kompozitsion xususiyatlari. Nurzul Islom obrazi, asarda rivoyatlarning o‘rni va ahamiyati). Mustaqillik va o‘zbek adabiyoti masalalari. (Hozirgi adabiy jarayon.) Odil Yoqubov ijodida zamонавиy mavzu. (“Diyonat”, “Oq qushlar oppoq qushlar”, “Adolat manzili” romanlarining yaratilishi. Ulardagi obrazlar xarakteridagi xususiyatlar. Bu asarlarda ruhiy tasvirlarning berilishi). Shayxzoda-dramaturg. (Urush yillarida “Jaloliddin” nomli drama yozdi. Keyin “Mirzo Ulug‘bek” tragediyasini yozib juda mashxur bo‘ldi. Asarda Ulug‘bekning xarakteri, psixologiyasi holati mahorat bilan berilgan. Said Obid, Piri Zindoniy, Abdulatif, Bobo Kayfiy singari obrazlar talqini.) A.Qahhor romanlari.(“Sarob” romani. Asardagi Saidiy obrazi.Uning sarob xayollar natijasida fojiali o‘limi. “Qo‘shchinor chiroqlari” romanida kollektivlashtirish masalasi.) 60-70-yillapr dramaturgiyasi (Ishlab chiqarish va mafkuraga doir asarlar. “Parvona”, “Parvoz”, K.Yashinining “Inqilob tongi”, A.Qahhorning “Ayajonlarim”, “Tobutdan tovush”, G‘.G‘ulomning “Toshbolta Oshiq” dramalari yozildi). Urushdan keyingi yillar o‘zbek adabiyoti

(“Sinchalak”, “G‘oliblar”, “Bolalik”, “o‘qituvchi”, “Qo‘shechinor chiroqlari”. Adabiyotda “Konfliktsizlik nazariyasi”ning hukm surishi. A.Oripov ijodi. (Tarjimai xoli. “Mitti yulduz” to‘plamiga kirgan dastlabki she’rlari. “Onajon”, “Ruhim”, “Yuzma-yuz” va “Hayrat” kabi she’riy to‘plamlari. Tarjima asarlari) .

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Абдуллаев В. Ўзбек адабиёти тарихи. Дарслик. 2- китоб. – Т., 1980.
2. Абдурауф Фитрат Буюк бешлик сабоқлари, Тошкент:, Гафур Гулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1995.
3. Абдурауф Фитрат. Адабиёт қоидалари, Тошкент:, Ўқитувчи, 1995
4. Алишер Навоий. МАТ. 20 томлик, 1991-1999.
5. Аристотель. Поэтика. Тошкент, 1978.
6. Атоуллоҳ Ҳусайнин. Бадоеъ усь-санойиъ, Тошкент, Г.Гулом номидаги «Адабиёт ва санъат» нашриёти, Тошкент, 1974.
7. Бобоев Т. Шеър илми таълими- Т., «Ўқитувчи», 1996.
8. Бобур . Мухтасар, Тошкент, 1976.
9. Буало. Шеърий санъатлар. Тошкент, 1978.
10. Валихўжаев Б. Ўзбек адабиёти тарихи (ХУ асрнинг биринчи ярми). 1- қисм; Ўзбек адабиёти тарихи (ХУ асрнинг иккинчи ярми) П қисм. Қўлланмалар, Самарқанд, 2002.
11. Валихўжаев Б., Тоҳиров Қ. Ўзбек адабиёти тарихи (ХҮ1 аср), қўлланма, СамДУ нашриёти, 2002 й.
12. Фиёс ул лугот. Жилд 2, Душанбе, 1988.
13. Жумаев Нусратулла. Мунис ғазалиёти. Тошкент, 1990. (Бадиий маҳорат асалалари).
14. Иззат Султон. Адабиёт назарияси. Тошкент, 1980.
15. Исҳоқов Ё. Навоий поэтикаси. Т., 1983.
16. Комилов Н. Тасаввуп. – Тошкент: Мовароуннаҳр – Ўзбекистон, 2009. – 448.
17. Қаюмов А. П. «Тазкираи Қаюмий», 1-3 жилдлар, 1998.
18. Муҳиддинов М. «Комил инсон адабиёт – адабиёт идеали». – Тошкент: Маънавият. – 2005.
19. Муҳиддинов М.Қ, Асроров А.А. Алишер Навоий «Хамса» сида маънавий пок инсон талқини. – Самарқанд, 1991, 3-42 б.
20. Муҳиддинов М.Қ. Нурли қалблар гулшани. Монография. – Т: Фан, 2007.
21. Орзибеков Р. Туюқ поэтикаси, Тошкент, Ўзбекистон, 1985.
22. Орзибеков Р. Ўзбек адабиёти тарихи (миллий уйғониш даври) , қўлланма- С. 2003.
23. Орзибеков Р. Ўзбек лирик поэзиясида ғазал ва мусаммат. Тошкент, Фан, 1976.
24. Орзибеков Р. Ўзбек шеърияти жанрлари. Ўкув қўлланмаси 1-2 китоблар, Самарқанд, 1998, 1999.
25. Орзибеков Р. Ўзбек шеъриятида сирли – синкретик жанр ва шакллар. Самарқанд, 1992 (маъruzалар матни).
26. Орзибеков Р. XIX аср ўзбек адабиёти тарихи (1-П қисмлар), қўлланма, 2001, 2002.

27. Орзибеков Р. Шеърий санъатлар таҳлили. Қўлланма (Бакалавр ва магистрлар учун)
28. Рафиддинов С. Мажоз ва ҳақиқат (Атоийнинг поэтик маҳорати), Тошкент 1995 й.
29. Раҳмонов В. Шеър санъатлари. Хўжанд, 1972; Шеър санъатлари, Тошкент 2001.
30. Рустамов А. Навоийнинг бадиий маҳорати. Тошкент, Фан, 1991.
31. Салоҳий Д. Навоийнинг эпик шеърияти. – Самарқанд, 2011.
32. Тўйчиев У. Адабий турлар ва жанрлар. Уч жилдлик, 2-жилд, Лирика, Тошкент, Фан, 1993.
33. Тўйчиев У. Ўзбек поэзиясида аruz системаси. Тошкент, Фан, 1985.
34. Ҳайитметов А. Адабий меросимиз уфқлари-Т., 1997
35. Ҳайитметов А. Ҳаётбахш анъаналар. F. Ғулом номидаги «Адабиёт ва санъат» нашриёти, Тошкент, 1974, 15-53 бетлар.
36. Ҳақкулов И. Шеърият- руҳий муносаба. Т., 1989.
37. Ҳасанов С. Бобурнинг «Аruz risolasi» асари. Тошкент, 1988.
38. Ҳожиаҳмедов А. Аruz назарияси асослари. ТошДУ, 1982.
39. Ҳожиаҳмедов А. Шеърий санъатлар ва мумтоз қофия. «Шарқ» нашриёт-матбаа концерни. Тошкент, 1998.

**SHAROF RASHIDOV NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
UNIVERSITETINING TAYANCH DOKTORANTURA
IXTISOSLIKLARIIGA KIRISH SINOVLARI UCHUN MAXSUS
FANLARDAN DA'VOGARLARNING BILIMLARINI
BAHOLASH MEZONI**

Sinov topshirish shakli	Yozma
Ajratilgan vaqt	120 daqiqa
Savollar soni	5
Har bir savol uchun belgilangan ball	20
Maksimal ball	100